



TO'SATDAN YURAKDAN O'LIMLARDA YURAKNING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARI O'ZGARISHLAR

Xakimov Z. Q.

Mamatalieva M. A.

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

Dolzarbligi:

Yurakdan to'satdan o'limda yurakni to'xtashi mexanizmi yurakning qorincha va bo'lmachalarini innervatsiya qiladigan nervlarining demineralizatsiyasi va o'tkazuvchanligini buzilishi oqibatida yurakning elektr beqarorligini shakllanishi sharoitida yuzaga keladigan qorinchalar fibrilyatsiyasi, ularni asistoliyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi to'satdan yurakdan o'limlarda yurakning morfometrik ko'rsatkichlari o'zgarishlarni o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari: To'satdan yurakdan o'limlarida yurakdagi kontraktur shikastlanishlar 40ta 20-70 yoshdagi erkaklarda o'rganildi. Ularga nazorat guruxi sifatida ushbu yoshdagi 40 ta to'satdan boshqa sabablarda vafot etgan insonlarni yuragi morfologik o'zgarishlari va morfometrik ko'rsatkichlari bo'ldi. Tadqiqotda morfologik, morfometrik, statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: To'satdan yurakdan o'limlarini o'tkir namoyon bo'lishi kardiomiostitlarni giperrelaksatsiyasi, kardiomiostitlarni kontraktur degeneratsiyasi, hujayra ichi miostitolizi va parchalanishi ko'rinishida miokardni tarqalgan ishemik shikastlanishi bilan kuzatildi.

To'satdan yurakdan o'limlarini morfologik belgilariga miokard ishemiyasi soxasida turli yo'nalishdagi ikkita jarayonlarning qo'shilishi – kontraktur shikastlanishlar va sarkomerlar giperrelaksatsiya bilan kechuvchi ishemiya, reperfuziyasi kirib, ular polyarizatsion mikroskopiya yordamida aniqlandi. Polyarizatsion mikroskopiyada kontraktur shikastlanishlar - shikastlanish darajasi



bilan farqlanildi – 1 va 2 - darajalar I disklar ingichkalashishi hisobiga (izotoplarni) A-disklarni (anizotroplarni) yaqinlashishi bilan xarakterlandi; 3 -daraja kontrakturasi I-disklarni to'liq yo'qolishi, A-disklarni yaxlit konglomeratiga qo'shilib ketishi bilan xarakterlandi va ular yorqin yorug'likdagi qismlarga ega bo'ldi. Miokardni parchalanishi anizotrop substansiyada ko'plab emirilgan tuzilmalar mavjudligi bilan xarakterlandi.

Tadqiqot guruhida yurakning morfometrik tekshiruvida ko'rsatkichlari: yurak vazni - $330 \pm 3,3g$, uzunligi $10,1 \pm 0,2sm$, kengligi $9,4 \pm 0,3sm$, qalinligi $5,2 \pm 0,4sm$, chap qorincha devorlarining qalinligi - $1,6 \pm 0,1sm$, o'ng qorincha devorlarining qalinligi - $0,6 \pm 0,1 sm$. Ushbu ko'rsatkichlar qiyoslanganda yurakdan to'satdan o'limda nazorat guruxiga nisbatan ular yuqori bo'ldi. Har ikkala qorincha gistologik tekshirilganda kardiomiostitlarning 2-3-darajadagi kontraktur shikastlanishi ustunligi kuzatildi. Chap qorinchada kontrakturalar miqdori $53,4 \pm 2,0\%$ tashkil qildi. Kontrakturalarni joylashishi ko'pincha chap qorinchaning oldingi, yonbosh va orqa devorlarida, asosan miokardning subendokardial va intramural bo'limlarida aniqlandi.

Nazorat guruhida kardiomiostitlarni to'liqinsimon deformastiyasi $57,5 \pm 2,8\%$, hujayralar dissostiastiyasi $64,4 \pm 3,7\%$ -ida aniqlandi. Chap qorinchada kontrakturalar miqdori $53,4 \pm 2,0\%$ tashkil qildi. Kontrakturalarni joylashishi ko'pincha chap qorinchaning oldingi, yonbosh va orqa devorlarida, asosan miokardning subendokardial va intramural bo'limlarida aniqlanib, 3-darajali shikastlanishlar kayd etildi. Chap qorinchadagi kontraktur shikastlanishlar miqdori $64,2 \pm 5,8\%$ tashkil etdi.

Tadqiqot guruhida yurakning morfometrik tekshiruvida xar ikkala qorinchalar gistologik tekshirilganda kardiomiostitlarni 2-3-darajadagi kontraktur shikastlanishini ustunligi kuzatildi. Miokardni hamma sohalarida kardiomiostitlarni to'liqinsimon deformastiyasi, shuningdek 2/3 qismini egallagan kardiomiostitlar dissostiastiyasi kuzatildi. To'liqinsimon deformastiya belgilari bilan bo'lgan kardiomiostitlar miqdori $44,2 \pm 5,6\%$, dissostiastiya belgilari bilan kardiomiostitlar miqdori - $58,7 \pm 2,8\%$ ni tashkil qildi.



Xulosa:

To'satdan yurakdan o'limlarida miokardni hamma sohalarida kardiomiostitlarni to'liqinsimon kechishi, deformastiyasi belgilari yorqin namoyon bo'ldi, shuningdek ko'ruv maydonini 2/3 qismida kardiomiostitlar dissostiastiyasi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бомаш Н.Ю. Морфологическая диагностика заболеваний щитовидной железы. // М.Мед.- 1981. с. 176.
2. Свистунов В.В., Макарова А.Е., Воронцова М.В. Атеросклероз, гипертоническая болезнь. // Уч.пос.для орд. Иркутск – 2018. с. 70.
3. Хмельницкий О.К. Цитологическая и гистологическая диагностика заболеваний щитовидной железы: рук-во. - СПб.: Сотис, 2002. – с. 288.
4. Алтунин А. В. Нарушения внутрисердечной гемодинамики и методы их коррекции у больных ИБС на фоне гипотиреоза. // Автореф. дис. на сос. уч.стен. к.м.н. 2004. с 25.
5. Волков В.П. Новый подход к оценке морфофункционального состояния щитовидной железы. // Universum: Медицина и фармакология.: электрон.науч. журн. 2014. № 12 (13). с. 35-40.
6. Гервальд В.Я., Насонов Т.Г., Лепилов А.В. и др. Внезапная сердечная смерть. Состояние проблемы. // Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. 2015. Т. 3, № 6. с. 35-41.
7. Левитин А.В. Морфология щитовидной железы при острых формах ишемической болезни сердца. // Автореф. дис.на соис. к.м.н. 2010. 19 с.
8. Панченкова Л.А. и др. Тиреоидный статус и сердечно-сосудистая система. // Рос.мед. вести. 2000. - №1. с.18-25.
9. Мальцева А.С., Строгонова В.В. Предикторы внезапной сердечной смерти. // Scientific Cooperation Center "Interactive plus". 2018. с. 1-11.
10. Insull William. The Pathology of Atherosclerosis: Plaque Development and Plaque Responses to Medical Treatment. // The American Journal of Medicine, Vol 122, No 1A, January 2009. p. 4-13.
11. Rafieian-Kopaei M, Setorki M, Monir D. Atherosclerosis: Process, Indicators, Risk Factors and New Hopes. Int J Prev Med. 2014 Aug; 5(8): p. 927–946.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfséries.com

24th December, 2024

12. Van der Werf C., Hendrix A. et al. Improving usual care after sudden death in the young with focus on inherited cardiac diseases (the CAREFUL study): a community-based intervention study. *Europace*. 2015 y. Apr 1.